





## **Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi** *(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*

2019 yil yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1960,9 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 31,7 % ga o'sishni ta'minladi.

### **Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda** *(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*


	<b>Korxonalar va tashkilotlar soni</b>	<b>135,1</b>
	<b>Xodimlar soni</b>	<b>103,5</b>
	<b>Ish haqi fondi</b>	<b>136,3</b>
	<b>O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi</b>	<b>131,7</b>

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi**  
(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>3123</b>	<b>123103</b>	<b>2896731,5</b>	<b>1960,9</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	32	12213	408092,4	2724,0
Qurilish	12	1355	31744,1	1937,2
Savdo	26	2195	61735,2	2201,5
Tashish va saqlash	7	2467	84681,3	2847,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	108	1276,4	956,0
Axborot va aloqa	18	814	20369,6	2076,0
Bank, sug'urta va vositachilik	30	3187	149223,4	3864,8
Ta'lim	1178	57202	1202506,2	1729,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	71	22784	454086,7	1633,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	154	1727	29444,8	1372,7
Boshqa faoliyat turlari	1581	19051	453571,4	1968,1

**Ish haqi.** 2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida 1178** ta muassasada **57202** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,5 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1 202 506,2** mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 41,5%) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1729,1** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 34,9 % ga o'sdi.

**Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi**

*(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi  
va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*


**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**

Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri - 122,1 %, Yangiariq tumani - 105,9 %, va Xonqa tumani - 103,7 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Shovot - 93,6 %, Yangibozor - 90,8 %, Gurlan - 89,6 % hamda Qo'shko'pir - 87,3 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**



**Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Hazorasp tumani - 142,6 % va Yangibozor tumani - 102,1 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Yangiariq - 73,1%, Gurlan - 72,7 %, Xiva - 71,3 % hamda Urganch- 55,6 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**






**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Urganch tumani 129,7 %, Qo'shko'pir tumani 118,9 % va Bog'ot tumani 111,9 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Xiva - 94,6 %, Hazorasp - 90,1 %, Yangibozor - 87,6 % hamda Shovot - 80,8 % tumanlarida kuzatildi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**





### Qurilish sohasi bo`yicha o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo`jaligi va kichik tadbirkorlik sub`ektlaridan tashqari)



O`rtacha oylik ish haqi, ming so`mda




Qurilish sohasidagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Xonqa tumanida -118,6 % kuzatildi, shuningdek, viloyat darajasidan yuqori ko`rsatkichlar Urganch - 117,4 % shahrida kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba`zi tumanlari qurilish sohasidagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko`rsatkichi viloyat darajasidan past bo`ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko`rsatkichidan sezilarli darajada past o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko`rsatkichi Yangibozor - 88,6 %, Xiva - 84,2 %, Bog`ot - 74,4 % hamda Qo`shko`pir - 68,2 % tumanlarida kuzatildi.

O`rtacha oylik ish haqi, ming so`mda




**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari)**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda  
Urganch shahar 4168,6**

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida 107,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Qo'shko'pir tumani 29,6 %, Gurlan tumani 27,3 %, Hazorasp tumani 24,3 % hissasiga to'g'ri keldi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan  
o'sish sur'atlari, %**

*(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari)*

Xorazm viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati ta'limda 34,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 30,9 %, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 30,9 %, qurilishda 29,3 % va sanoatda 20,5 % kuzatildi.

**Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos  
davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*








**Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*


**2019**



**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**


*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*

**2019**



**Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan  
ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati, %**

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 2314,7 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,0 %), Hazorasp tumanida 2213,7 ming so'mni (112,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Yangibozor tumanida 1616,1 ming so'mni (82,4 %), Gurlan tumanida 1593,6 ming so'mni (81,3 %), Qo'shko'pir tumanida 1584,1 ming so'mni (80,8 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)*

	2018 yil yanvar- dekabr	2019 yil yanvar- dekabr	O'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1488,9</b>	<b>1960,9</b>	<b>131,7</b>
Urganch sh.	1801,9	2314,7	128,5
Xiva sh.	1302,0	1710,5	131,4
tumanlar:			
Bog'ot	1271,0	1697,4	133,5
Gurlan	1234,6	1593,6	129,1
Qo'shko'pir	1297,4	1584,1	122,1
Urganch	1454,9	1926,6	132,4
Hazorasp	1584,2	2213,7	139,7
Xonqa	1375,6	1826,9	132,8
Xiva	1297,9	1710,3	131,8
Shovot	1155,1	1637,2	141,7
Yangiariq	1373,0	1807,9	131,7
Yangibozor	1225,3	1616,1	131,9

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil sentabr oyida 634,9 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.*



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi**

**Tel: (62) 224-65-08**